Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	795
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	
O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....	806
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi	812
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....	816
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....	822
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	829
Бегалиев Файзали Умаралиевич	
Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi	832
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	



Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis soxasida davalt- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbas Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржохон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni	1075
Abdukaxarova Shoirabduvahobovna	



BANK XIZMATLARI SIFATI VA BANK DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA PERSONAL FAOLIYATINING O'RNI

Abdukaxarova Shoira Abduvahobovna

AJ "InfinBank" Yakuniy nazorat departamenti
inspektori, TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimiz tijorat banklari faoliyatida personal salohiyatni oshirishning bank xizmatlari sifatiga va samaradorligiga tizimli ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda xodimlarning malaka darajasi, kasbiy ko'nikmalari va rivojlanish strategiyalarining bank mijozlari ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish tezligi hamda ishonchligini oshirishdagi o'rni chuqur o'rganiladi. Tadqiqot natijasida tijorat banklari uchun kadrlar siyosatini takomillashtirish, strategik resurs sifatida inson kapitalini rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, personal salohiyati, bank xizmatlari sifati, kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish, kasbiy rivojlanish, mijozlar ehtiyoji, bank raqobatbardoshligi.

Abstract: This article studies the systematic impact of increasing personnel capacity on the quality and efficiency of banking services in the activities of commercial banks in our country today. The study deeply studies the role of the level of qualifications, professional skills and development strategies of employees in meeting the needs of bank customers, increasing the speed and reliability of service provision. As a result of the study, practical recommendations and proposals are given for commercial banks to improve personnel policy, develop human capital as a strategic resource, and improve service quality.

Key words: commercial banks, personnel potential, quality of banking services, personnel policy, human resource management, professional development, customer needs, bank competitiveness.

Аннотация: В данной статье изучается системное влияние повышения кадрового потенциала на качество и эффективность банковских услуг в деятельности коммерческих банков нашей страны на сегодняшний день. В исследовании глубоко изучается роль уровня квалификации, профессиональных навыков и стратегий развития сотрудников в удовлетворении потребностей клиентов банка, повышении скорости и надежности предоставления услуг. В результате исследования даются практические рекомендации и предложения для коммерческих банков по совершенствованию кадровой политики, развитию человеческого капитала как стратегического ресурса, повышению качества обслуживания.

Ключевые слова: коммерческие банки, кадровый потенциал, качество банковских услуг, кадровая политика, управление человеческими ресурсами, профессиональное развитие, потребности клиентов, конкурентоспособность банка.

KIRISH

Bugungi kunda bank tizimi raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining o'zgarishi va raqamli transformatsiya sharoitida faoliyat yuritmoqda. Ushbu sharoitda banklar o'z faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nafaqat, moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki xizmatlar sifati va mijozlar ehtiyojini maksimal darajada qondirishga alohida e'tibor bermoqlari zarur. Bu borada o'z o'rnida tijorat banklari xizmatlarining sifati ko'p jihatdan shu muassasada faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasi, motivatsiyasi va mijozlarga bo'lgan yondashuviga bog'liqdir.

Xodimlarning professional darajasi va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat sifatining to'g'ri boshqarilishi bankning moliyaviy natijalarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bank xizmatlarlari mijozlar bilan samarali aloqalar o'rnatish, muammolarni tez va sifatli hal etish hamda mijozlarga individual yondashuvni ta'minlash orqali mijozlar sodiqligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida bankning daromadlarini barqaror oshirishga olib keladi.

Shuningdek, so'nggi yillarda raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalarning joriy etilishi bank xizmatlari sifatini oshirishda muhim vositaga aylangan. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlari va ma'lumotlar tahlili bank xodimlarining samaradorligini oshirish, mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishni



ta'minlash imkonini beradi. Bu omillar birgalikda bank daromadlarini optimallashtirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining 5-noyabr 2019-yildagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonunida ham bank xodimlarining huquq va majburiyatlari, bank sirini saqlash majburiyati, moliyaviy manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, bank tizimidagi tartib-intizom va ichki nazoratga bo'ysunishi, etika hamda kasbiy javobgarligi kabi masalalar belgilab qo'yilgan [1].

Zamonaviy bank tizimining samaradorligi va barqaror rivojlanishi iqtisodiyotning umumiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bank xizmatlarining sifati va ularni ko'rsatuvchi personallar malakasi mijozlar ehtiyojlarini qondirish, ularning bankka bo'lgan ishonchi va sodiqligini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Demak, xizmat sifatining yuqori darajasi bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga, xususan, daromad va rentabellikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat sifatining oshishi mijozlar qoniqishini va ularning qayta xizmatdan foydalanish ehtimolini oshiradi, bu esa bank daromadlarini barqaror ravishda oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish mijozlarning bank bilan uzoq muddatli munosabatlarini mustahkamlash va yangi mijozlarni jalb qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bank xizmatlari esa ushbu jarayonda bevosita vositachi sifatida, mijozlar ehtiyojlarini to'g'ri tushunish, shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta'minlash va muammolarni samarali hal etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu mavzu bo'yicha yurtimiz va xorij iqtisodchi olimlarini o'rganib tahlil qiladigan bo'lsak, Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti "Bank ishi" kafedrasida o'qituvchisi A.S.Abduraxmonov o'z maqolasida quyidagi fikrni bildirdi: "Zamonaviy menejmentda xodimlar faqatgina mehnat resursi bo'lib qolmasdan balki, banklar faoliyatining muhim elementi hisoblanadi. Bank xodimlarini va mutaxassislarini birlashtirish faqat o'zini - o'zi boshqaruvchi organ emas, balki o'z-o'zidan rivojlanuvchi va o'z-o'zini tartibga soluvchi organ sifatida qaraladi [2]."

Avvalo tijorat banklari oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishda bank xodimlarini kelishib, hamjihatlikda jamoa bo'lib harakat qilishlari lozim bo'ladi.

Xususan, bank xodimlari faoliyatining bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'siri bo'yicha xorij iqtisodchi olimlardan Odessa milliy iqtisodiyot universiteti, "Tashkilot boshqaruvi" kafedrasida katta o'qituvchisi Kuznetsov Andrey Nikolayevich o'z ilmiy izlanishlarida bankni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish, xodimlar o'rtasida motivatsiyani yaxshilash shuningdek, yaxshi natijalarga erishish qobiliyatini oshirishning to'rtta asosiy usulini ko'rsatib berdi:

xodimlarni rag'batlantirish tizimi asosida mustahkamlash gipotezasi (material usuli);

maqsadlarni belgilash orqali xodimlarning xatti-harakatlarini tartibga solish yoki maqsadlar bo'yicha boshqaruv (maqsad usuli);

ishni boyitish va qayta loyihalash usuli asosida mehnat xususiyatlarini o'zgartirish (ish usulini boyitish);

xodimlarni boshqaruv jarayoniga jalb qilish (ishtirokchilik prinsipi)[3].


Tijorat banklari ish haqi tizimini yaratish va boshqarish, ish haqi siyosati, lavozimdan lavozimga o'tish, intizom, bonuslar, imtiyozlar va nafaqalarni belgilash va qo'llash, xodimlarning ish faoliyatini har tomonlama to'g'ri baholashi kerak. Vetnamdagi ko'pgina tijorat banklarida ishga yollash aniq, to'liq hamda batafsil hujjatlar tizimi bilan uslubiy tarzda qurilgan ish uslubi bo'yicha amalga oshiriladi. Ishga qabul qilish siyosati tizimli, sinxron va mantiqiy bo'lib, adolatlilik, oshkoralik, o'z vaqtida bo'lishini ta'minlaydi hamda ishga qabul qilish tijorat banklarining kadrlar to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va siyosatiga amal qiladi, deb fikrini o'z maqolasida bayon qildi Vetnamning Lak Xong universiteti professori Phan Thanh Tam[4].

TAXLIL VA NATIJALAR

Bank xizmatlari sohasida xizmat sifatini va personallar roli hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganishda nafaqat an'anaviy nazariyalar, balki zamonaviy model va yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda tijorat banklarida keng qo'llanilib kelinayotgan, mijozlarning xizmat haqidagi fikrlari va tasavvurlarini qamrab olib, uni tahlil qilish uchun tadqiqot usullaridan biri – SERVQUAL modeldan foydalaniladi.

SERVQUAL modeli – bu xizmat sifatini o'lchash uchun ishlatiladigan mashhur konseptual model bo'lib, 1985-yillarda Parasuraman, Zeithaml va Berry tomonidan ishlab chiqilgan. Bu model xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar mijozlar kutgan va haqiqiy tajribalari o'rtasidagi tafovutni aniqlash orqali xizmat sifatini baholaydi.

Model xizmat sifatini besh asosiy o'lcham orqali baholaydi, quyida ularni ko'rib chiqamiz:



1-rasm. SERVQUAL tizimining asosiy o'lchovlari[5].

SERVQUAL modeli asosida tahlil jarayoni bank mijozlari xizmat sifati bo'yicha o'z kutganlarini belgilaydi. Agar bank xizmatlari bu kutganlarga mos yoki undan yuqori bo'lsa, mijoz qoniqadi va bankka sodiqlik ortadi. Aksincha, kutgan darajadan past xizmatlar esa mijozni yo'qotishga olib keladi.

Tizimning ishonchlilik (Reliability) o'lchovi - bu korxonaning xizmatni samarali va aniq bajarish qobiliyatidir. Bu firma o'z vazifalarini to'liq bajarganmi yoki yo'qligini aniqlaydi.

Moddiy omillar (Tangibles) – ushbu o'lchov jihozlar, hodimlar va aloqa materiallariga tegishli jarayonlarni nazoratga oladi.

Hamdardlik (Empathy) - tashkilotning avvalo mijozlarning ehtiyojlari va so'rovlariga kata e'tibor berishi va mijoz haqligini bildiradi.

Javobgarlik (Responsiveness) komponenti esa firmaning o'z mijozlariga yordam berishi va va'da qilinganidek mos ravishda xizmat ko'rsatish qobiliyati anglatadi.

Ishonch uyg'otish (Assurance) - bu o'lchov firma xodimlariga bevosita bog'liq. Iste'molchi ongida ishonch hosil qilish ularning mahoratidir. Bu to'g'ri bilim va fidoyilikni talab qiladi. Tijorat banklarining xizmat sifatini baholovchi SERVQUAL modeli asosida bank faoliyatini tahlil qilish orqali mijozlar ehtiyojini chuqur anglash, ularning xulq-atvori va sodiqligiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa bankning bozor ulushi va daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Ana shunday komponentlardan foydalangan holda o'z faoliyatini olib borayotgan "Hamkor Bank" ATB O'zbekiston Respublikasining bank xizmatlari bozorida 1991-yildan buyon faoliyat yuritayotgan yirik banklardan biri hisoblanadi. Bank mamlakatning barcha hududlarida joylashgan 157 ta bank xizmatlari ofisiga ega. Bankning ichki so'rovnomalari va mustaqil tadqiqotlar natijasida mijozlarning 87%dan ortig'i xizmat sifatidan qoniqish bildirgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan 10% ga oshgan bo'lib, mijozlarning bankga sodiqligini oshirishda xizmatlarning malakasi va muomala madaniyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. SERVQUAL modeliga asoslangan baholashda xizmatning ishonchliligi va mijozlarga yondashuvdagi samimiyati yuqori ball olgan. Bank xodimlari uchun tashkil etilgan muntazam treninglar va sertifikatlash dasturlari personallar malakasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, AI va avtomatlashtirilgan xizmatlar joriy etilishi xodimlarning ish samaradorligini 20-25%ga oshirgan. Bankning raqamli platformalari yordamida mijozlar murojaatlarining ko'rib chiqish vaqti o'rtacha 30% ga qisqargan. Buni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.



1-jadval. “Hamkorbank” ATBning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (2024 yil 31 dekabr holatiga, mlrd. so'm)[6]

Ko'rsatkichlar	2024	2023	O'zgarishi (%)
Kredit portfeli	19,264	15,930	+20,9%
Depozit portfeli	11,420	7,662	+49,1%
Jami kapital	5,541	4,056	+36,6%
Foiz daromadi	4,517	3,257	+38,7%
Foizsiz daromadlar	1,531	1,028	+49,0%
Sof daromadlar	1,505	1,214	+23,9%
ROAA, %	6,0%	6,4%	-0,4pp

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ATB “Hamkorbank” 2024-yilda asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror moliyaviy o'sishga erishilgan. Kredit portfeli 20,9 foizga o'sib, 15,9 trillion so'mdan (1,291 million dollar) 19,2 trillion so'mga (1,491 million dollar) oshgan, bu esa barqaror kreditlash faolligidan dalolat beradi. Depozitlar sezilarli darajada 49,1 foizga o'sib, 7,6 trillion so'mdan (621 million dollar) 11,4 trillion so'mga (884 million dollar) yetdi, natijada mijozlar ishonchi va jamg'armalarining ortishidan dalolat beradi. Jami kapital 36,6 foizga oshib, 4,0 trillion so'mdan (329 million dollar) 5,5 trillion so'mga (429 million dollar) yetdi va bu bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamladi. Yil davomida foiz daromadlari 38,7 foizga oshib, 3,2 trillion so'mdan (277 million dollar) 4,5 trillion so'mga (357 million dollar) oshdi, bu foiz daromadlarining o'sishi hisobiga, sof foyda esa 23,9 foizga o'sib, 1,2 trillion so'mdan (105 million dollar) 111 million so'mgacha o'sdi. Ushbu ko'rsatkichlar ma'muriy va operatsion xarajatlar 1,1 trillion so'mdan (97 million dollar) 1,4 trillion so'mga (113 million dollar) oshganiga qaramay, bankning rentabelligini saqlab qolish qobiliyatini ko'rsatadi.

“Hamkorbank”ning barqaror va yuqori moliyaviy natijalari, birinchi navbatda, bank xodimlarining o'z xizmat vazifalariga ma'suliyat bilan yondashishi, mijozlar ehtiyojini to'g'ri tahlil qilishi va SERVQUAL modelining asosiy tamoyillarini amaliyotga to'g'ri tatbiq eta olishi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlari sifati va mijozlar qoniqishiga xodimlarning professionalligi, munosabati va o'z xizmat vazifalariga bo'lgan yondashuvi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har qaysi davrda ham intellectual kapital o'z qiymatini yo'qotmagan va yo'qotmaydi. Intellectual capital o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Inson kapitali, jumladan bilim, ta'lim, iste'dod, amaliy va kasbiy ko'nikmalar.

Tashkiliy kapital, jumladan korporativ axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, dasturiy ta'minot, mualliflik huquqlari, patentlar, nou-xau, litsenziyalar, tovar belgilari kabilar.

Kompaniyaning iste'molchilar bilan aloqalari va mijozlar xabardorligiga asoslangan iste'mol kapitali[7].

Shunday qilib, tijorat banklari, korxona, tashkilot va muassasalarning barqaror faoliyati uchun personal faoliyatining o'rni katta bo'lib, ularga ish davrida xodimning salohiyatidan kelib chiqqan holatda turli imtiyozlar qo'llashni tavsiya etiladi. Masalan, ijtimoiy rag'batlantirish choralarini takomillashtirish, bank xodimlari uchun bonus va mukofot tizimini joriy qilish, imtiyozli kreditlar berish, xizmat davriga qarab qo'shimcha ustamalar belgilash va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. A.S. Abduraxmonov. Bank xodimlarini boshqarish va uning o'ziga xos xususiyatlari. Journal of marketing, business and management(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57
3. A.N.Kuznetsov. Impact of personnel labour motivation upon solution of bank development strategic goals. <file:///C:/Users/User/Downloads/impact-of-personnel-labour-motivation-upon-solution-of-bank-development-strategic-goals.pdf>
4. Phan Thanh Tam. Human Resource Management Affecting the Banking Service Quality: A Entrepreneurship Practicum Situation at Commercial Banks. Journal of Entrepreneurship Education (Print ISSN: 1098-8394; Online ISSN: 1528-2651). <https://www.abacademies.org/articles/human-resource-management-affecting-the-banking-service-quality-a-entrepreneurship-practicum-situation-at-commercial>
5. Hitesh Bhasin. The Servqual Model – Definition, Dimensions, Gaps and Advantages Service, November 29, <https://www.marketing91.com/servqual/>
6. <https://hamkorbank.uz/uz/financial-institutions/financial-statements/>
7. Е.В. Слепцова, канд. экон. наук, доцент, Кубанский государственный университет (Россия, г. Краснодар) Персонал как фактор конкурентного преимущества банка.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
